

TOURISM DEVELOPMENT MODEL IN UZBEKISTAN AND ITS SPECIFIC CHARACTERISTICS

Nurislom Tuxliyev

DSc, Professor of the International Islamic Academy of Uzbekistan

Phone №: +998977071853, e-mail: tukhliev.nurislom@gmail.com

ANNOTATION

The article is devoted to the essence, features, factors and opportunities for the development of the national model of tourism in Uzbekistan. The measures taken by the state for the further development of the national model of tourism in the country are also considered.

Keywords: national tourism model, tourism potential, regulatory framework, investments, tourism, national heritage, mentality, infrastructure, ecology, insurance, xenophobia, camping, tourism industry, landscape, pilgrimage tourism, institutional licensing, certification, standardization.

O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH MODELINI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Nurislom Tuxliyev,

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi professori, i.f.d.

Tel.:+998977071853

e-mail: tukhliev.nurislom@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqola O'zbekistonda turizmni rivojlantirish milliy modelining mohiyati, xususiyatlari, omillari, imkoniyatlari va shart-sharoitlariga bag'ishlangan. Unda keyingi yillarda mamlakatda milliy turizm modelini yanada rivojlantirish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar tizimga alohida o'rin ajratilgan.

Kalit so'zlar: turizm milliy modeli, turizm salohiyati, huquqiy-me'yoriy asoslar, investitsiya, turmahsulot, milliy meros, mentalitet, infratuzilma, ekologiya, sug'urta, ksenofobiya, kemping, turindustriya, landshaft, ziyorat turizmi, institutsional litsenziyalash, sertifikatlash, standartlashtirish.

МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ И ЕЕ ОСОБЕННОСТИ

Нурислам Тухлиев,

д.э.н., профессор Международной исламской академии Узбекистана

Tel.:+998977071853

e-mail: tukhliev.nurislom@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена сущности, особенности, факторы и возможности развития национальной модели туризма в Узбекистане. Рассматриваются также принимаемые государством меры

дальнейшего развития национальной модели туризма в стране.

Ключевые слова: национальная модель туризма, туристический потенциал, нормативно-правовая база, инвестиции, туризм, национальное наследие, менталитет, инфраструктура, экология, страхование, ксенофобия, кемпинг, туриндустрия, ландшафт, паломнический туризм, институциональное лицензирование, сертификация, стандартизация.

Keyingi yillarda “turizm milliy modeli” tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarga kirib keldi. Bu tushuncha sohada kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy jarayonlarni tavsiflash, milliy turizmning boshqa mamlakatlardagi turizmdan farqli jihatlari va o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib berishga yordam beradi.

“Milliy turizm modeli” tushunchasining mohiyati nimada va uni qanday qilib aniqlash mumkin? Albatta, bu borada yagona o'lchov, mezon yoki ko'rsatkich yo'q. Bir tomondan, turizm modeli sohada yuz berayotgan hodisalar va jarayonlarning kishilar tomonidan qabul qilinishidir. Bu o'z navbatida, turizm mahsulotlarining barcha bosqichlarda (tarmoq, soha) harakatlanishi, turizm rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan omillar (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy)ni aniqlash hamda kuzatish imkonini beradi.

Boshqa tomondan, bu tushuncha iqtisodiy jarayonga turizmning barcha resurslari (korxonalar, kishilar, tabiat, davlat mexanizmi, diqqatga sazovor joylar)ni jalb qilishni bildiradi¹.

So'zsiz, har bir mamlakat o'zining tabiiy-geografik, tarixiy, milliy xususiyatlariga va an'alariga ega. Bu xususiyatlarning belgilari va omillari quyidagilar:

1. Mamlakatning tarixiy rivojlanishi, boy madaniy meros. Bir necha ming yillik tarixga ega mamlakatlar (Misr, Iroq, Xitoy, Hindiston, O'zbekiston) sayyohlarni o'ziga jalb qiladigan boy tarix va madaniy merosga ega. Ammo yosh mamlakatlar ham turistlar uchun qiziqarli tarzda o'z tarixini ko'rsatib bera olishi mumkin. Buning hammasi turmahsulotlarni qanday qilib jozibador shakllarda ko'rsatib berish san'atiga bog'liq. Milliy meros – turistlarni o'ziga jalb qila oladigan muhim omillardan biridir. O'zbekistonda Buxoro, Samarqand, Xiva, Termiz, Shaxrisabz kabi noyob shaharlar, xalqning ming yillar davomida shakllangan o'ziga xos mentaliteti, madaniyati, urf-odat va an'analari bor. G'arbdagi individualizmdan farqli o'laroq bu yerdagi jamoaviylik ruhi, uning zamonaviy ko'rinishlaridan biri mahalla tizimi chet ellik sayyohlarda katta qiziqish uyg'otmoqda.

2. Mamlakatning iqtisodiy ahvoli, turizm industriyasini rivojlantirishning muhim omillaridan biridir. Mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirishga xizmat qiladigan rag'batlantiruvchi imtiyozli soliqlar, kreditlar, ichki va chet el investitsiyalari uchun shart-sharoitlar yaratilgan. Turizmga to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita ta'sir ko'rsatadigan infratuzilma (yo'llar, energetika, kommunikatsiya) yildan yilga yaxshilanib bormoqda. Yaratilgan qulay iqtisodiy shart-sharoitlar sohada turizmning xususiy sektorini rivojlantirish imkoniyatini bermoqda. Boshqa sohalarda bo'lganidek, turizm tizimida ham institutsional o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

3. Mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiy vaziyat turizmni rivojlantirishning o'ta muhim omillaridandir. 90-yillardagi Tojikistondagi mojarolar, Afg'onistonda hozir ham davom etayotgan siyosiy beqarorlik, Suriya va Iroqdagi, hozirgi vaqtda Ukrainada ketayotgan

¹ Тухлиев Н., Абдуллаев Т. Национальные модели развития туризма. Учебное пособие. – Т.: Гос. науч. изд-во «О'zbekiston milliy inseqlopediyasi», 2006. Стр. 9.

urushlar bu omilning naqadar ahamiyatli ekanligini ko'rsatib turibdi. Siyosiy, iqtisodiy va tabiiy-ekologik beqarorlik hukm surgan joylarga turistlar oyog'i bilan javob beradi, ya'ni bunday yurtlarga tashrifdan o'zini tiyadi.

4. Ekologik, mamlakatning tabiiy-iqlim sharoitlarining ham turizmni rivojlantirishdagi ahamiyati beqiyos. Nafaqat o'rmonlar, tog'lar, suv havzalari, landshaftlar, boy flora va fauna turistlarni o'ziga tortadi. Garchi bu omillarning ahamiyatini pasaytirib bo'lmasa-da, jahonda sahrolar, qorli tog'lar, tekisliklar, inson oyog'i yetmagan dunyoning chekka joylariga sayohat uyushtirish bo'yicha ko'plab dasturlar ishlab chiqilgan va amal qiladi. SHuning uchun ham xuddi shu qum va qorlardan iborat mamlakatlar ham turizmni rivojlantirish imkoniyatiga ega. Hammasi davlatning xohish-istagi va harakatiga, turistlar va investitsiya jalb qilish siyosatiga bog'liq².

SHunday qilib, O'zbekistonda turizm bozorini rivojlantirishning ulkan omillari va imkoniyatlari mavjud. Ularni shartli ravishda ikki qismga ajratish mumkin:

1. Turizmni rivojlantirishning umumiy shart-sharoitlari;

2. Turizmni rivojlantirishning resurs, imkoniyatlari.

Umumiy shart-sharoitlar deganda siyosiy-huquqiy aspektlar (qonunchilik va me'yoriy baza, turizmdagi rasmiyatchilik, xususiy turistik firmalarning obro'-e'tibori, turizm sohasidagi davlat siyosati, turistik faoliyatni litsenziyalash, turizmda sertifikatlash va standartlashtirish), iqtisodiy aspektlar (soliqqa tortish, bojxona to'lovlari, kredit berish va turizm sohasida banklar ishtiroki, investitsiyalar, aholini turizm faoliyatiga jalb qilish va ularning manfaatdorligini oshirish, sug'urta, turizm xizmati bahosi), ijtimoiy aspekt (mahalliy aholining ajnabiy turistlar bilan munosabati (ksenofobiya), xalq hunarmandchiligi an'analarini qayta tiklash, mahalliy aholi turmush tarzini qo'llab-quvvatlash, kriminal vaziyat, xodimlar malakasini oshirish va boshqalar) tushuniladi.

Resurs imkoniyatlari deganda, eng avvalo, turizm industriyasi (transport, aloqa, mehmonxonalar, kempinglar, ovqatlanish, dam olish ob'ektlari, ko'ngilochar ob'ektlar, diqqatga sazovor joylar), madaniy va san'at maskanlari (tarixiy yodgorliklar, muqaddas joylar, ziyoratgohlar, muzeylar, arxeologik qazilmalar, milliy madaniyat, urf-odatlar, an'analar, aholi turmushi va oshxonasi), tabiiy salohiyat (tog'lar va tog' cho'qqilari, suv havzalari, sahrolar, cho'llar, o'rmonlar va boshqalar) nazarda tutiladi.

Turizmni qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmaga yo'llar, energetika, kommunal xizmat, xavfsizlik va tartib-qonunlar, moliyaviy xizmatlar, aloqa va kommunikatsiya, ommaviy axborot vositalari, savdo, sug'urta, tibbiy xizmat, ta'lim, texnologiya va boshqalar kiradi. O'zbekistonda bu omillar va shart-sharoitlar deyarli shakllangan va takomillashib bormoqda.

Yuqoridagi bayon qilinganlardan kelib chiqib, O'zbekistonda turizmning rivojlanish milliy modelini quyidagicha tavsiflash mumkin:

1. Sharqona mehmondo'stlik (xushchaqchaqlik, xavfsizlik, hurmat va qadrlash);

2. G'arb turidagi xizmat ko'rsatish standartlari (mehmonxona, transport xizmati, bronlash, ekskursiya, sinxron tarjimonlik xizmati);

3. Milliy turmahsulotlarning mahalliy jamoalar (mahalla) omilidan foydalangan holda turistlarga taqdim etilishi. Bu omil milliy turmahsulotga alohida kalorit bag'ishlaydi. Xuddi

² Тўхлиев Н., Жиянов Ў. Туризмнинг ривожланиш миллий моделлари. Дарслик. – Т.: «Илм-Зиyo-Zakovat» нашриёти, 2020. 7-8-бетлар.

ana shu mahallalar xalqimiz an'analari, turmush va ishlab chiqarish madaniyati, kishilarning hayot tarzi hamda psixologiyasi bilan tanishish markazi bo'lib xizmat qiladi.

4. O'zbekiston turizm modelining yana bir e'tiborli hususiyati shundaki, bu yerda noiqtisodiy omillarning ahamiyati yuqori. Bu omillarni boshqa yurtlarda uchratish qiyin. Bu – kishilarning turmush tarzi va psixologiyasi, dini va fe'l-atvori, falsafasi, dunyoqarashi. Bu xususiyatlar bir etnos (millat)ni boshqalardan yorqin bo'yoqlarda ajratib turadi. Bu kabi noiqtisodiy omillar chet ellik turistlarning u yoki bu turmahsulotga qiziqishini belgilaydi. Chunki turistlar mamlakatga bozor islohotlari, iqtisodiy vaziyat nuqtai nazaridan emas, balki tarixiy va tabiiy ob'ektlar, boy tarix va madaniyat, xalqning turmush tarzi ekzotikasi bilan tanishish maqsadida tashrif buyuradilar. O'zbekistonda bu omillarning deyarli barchasi mavjud.

5. Keyingi yillarda o'zbek turmahsulotining muhim qismlaridan biri bo'lib ziyorat turizmi maydonga chiqmoqda. Bu jihatdan ham o'lkamiz boy resurslarga ega.

6. Mamlakatimizda ekologik, ekstremal (Orolbo'yi, Qizilqum) va landshaft turizmini rivojlantirish imkoniyatlari ham katta.

Bu boradagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda turizmning yagona tarmoq bo'lib shakllanishi to'rtta bosqichni bosib o'tdi:

Birinchi bosqichda turli mulk tizimida bo'lgan korxonalar va tashkilotlar (Chet el turizmi bo'yicha SSSR Davlat qo'mitasi, "Sputnik" yoshlar turizm byurosi, kasaba uyushmalari) yagona tarmoqqa birlashtirildi. Bu bosqich 1992 – 1995-yillarni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi bosqich 1995 – 2000-yillarni o'z ichiga olib, bu bosqichdagi hujjatlar turizm infratuzilmasini rivojlantirishga, turistik yo'nalishdagi nodavlat korporativ birlashma va firmalarni yaratishga qaratildi.

Uchinchi bosqich 2000 – 2016-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, bu vaqtda qabul qilingan huquqiy-me'yoriy xujjatlar "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi tizimiga kiruvchi korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish, boshqaruv kompaniyasi va mehmonxona biznesiga chet el investitsiyalarini jalb qilishga bag'ishlanganligi bilan xarakterlanadi.

To'rtinchi bosqich – 2016-yildan keyingi davrni o'z ichiga olib, bu davrda qabul qilingan hujjatlar turizm sohasida institutsional o'zgarishlarni, milliy turizm salohiyatidan foydalanishni yaxshilash, turmahsulotning yangi turlarini taklif qilish, tashqi va ichki turizmni tashkil qilishni takomillashtirish, soha faoliyatini liberallashtirish muammolariga bag'ishlanganligi bilan ajralib turadi.

Har qanday tarmoq kabi turizm ham qonunlar, qaror va farmonlar, hamda dasturlar orqali tartibga solinadi, boshqariladi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda turistik faoliyatning huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi.

1999-yil 20-avgustda Oliy Majlis "Turizm to'g'risida"gi qonunni qabul qilgan edi. 2019-yil 16-aprelda Qonunchilik palatasi turizm to'g'risida O'zbekiston Respublikasining yangi qonunini qabul qildi. Qonun 2019-yil 21-iyunda Senat tomonidan ma'qullandi. Ushbu qonunning asosiy maqsadi turizm sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonunida turizmning asosiy printsiplari, shakllari va turlari, turizm sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining va boshqa vakolatli davlat organlarining hududiy bo'g'inlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining turizm sohasidagi vakolatlari, turizmni rivojlantirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash, turizmni byudjetdan tashqari qo'llab-

quvvatlash jamg'armasi, fuqarolar o'z-o'zini boshqarish organlarining va nodavlat, notijorat tashkilotlarining turizm sohasi tadbirlaridagi ishtiroki belgilab qo'yilgan.

**Qonunda turistik industriya tushunchasiga joylashtirish vositalari, transport, umumiy ovqatlanish ob'ektlari va ko'ngilochar, ma'rifat, ishbilarmonlik, davlat – sog'lomlashtirish, jismoniy tarbiya – sport hamda boshqa maqsadlarga mo'ljallangan ob'ektlar, turistik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar majmui, shuningdek, ekskursiya yetakchilarining, gidlar (gid-tarjimonlar) hamda yo'riqchi – yo'l boshlovchilarning xizmatlari majmui sifatida ta'rif berilgan. Shuningdek, qonunda turistik zonalar va turistik klasterlar, turizm sohasidagi faoliyatni amalga oshirish shartlari, turistik xizmatlarni litsenziyalash, sertifikatlashtirish va standartlashtirish, yagona reestr yuritish, turistik mahsulotni shakllantirish, targ'ib etish va realizatsiya qilish, milliy turistik brendni yaratish, turoperatorlar va turagentlarning, turistlar va ekskursantlarning, gidlar, ekskursiya yetakchilari va yo'riqchi – yo'l boshlovchilarning huquq va majburiyatlari, xavfsiz turizmni ta'minlash kabi masalalar o'z ifodasini topgan³.

2019-yil 5-yanvarda O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019 – 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish kontseptsiyasi, 2018-yil 3-fevralda "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, 2019-yil 5-yanvardagi "Turizm tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 6-martdagi "Transport va turizm ob'ektlarida jamoat xavfsizligini ta'minlashning samarali tizimini joriy etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2018-yil 7-fevralda "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 6-fevralda "O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish Davlat qo'mitasining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 6-fevralda "Kirish turizmni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 16-martida "2018 – 2019-yillarda Samarqand viloyatida turizmni yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari qabul qilindi⁴. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni muhim rol o'ynadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2019-yil 13-fevralda "2019 – 2020-yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 8-martida "Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 14-iyunda "O'zbekiston Respublikasida kinoturizmni jadal rivojlantirish va mamlakat kino jozibadorligini keng targ'ib qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 23-noyabrda "Buxoro, Samarqand, Xiva va Shaxrisabz shaharlarida xavfsiz turizmni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 3-mayda "Surxondaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 3-dekabrda "Ekoturizmni rivojlantirish va suv omborlarining suvni muhofaza qilish zonalarini doirasida yer uchastkalarini ajratish tartibini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari qabul qilindi. Sohaga oid qator hukumat qaror va farmoyishlariga

³ Qarang: O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni, 2019-yil 18-iyul, O'RQ-549-son.

⁴ www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

o'zgartirishlar kiritildi.

Ko'rinib turadiki, O'zbekistonda turizm milliy modeli asosan shakllangan, uni yanada rivojlantirish omillari va shart-sharoitlari, shu jumladan, zamonaviy imkoniyatlari yaratilgan, oldimizdagi vazifa ulardan foydalanish samaradorligini oshirishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni, 2019-yil 18-iyul, O'RQ-549-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi, 2022-yil dekabr.
4. Тўхлиев Н., Жиянов Ў. Туризмнинг ривожланиш миллий моделлари. Дарслик. – Т.: «Ilm-Ziyo-Zakovat» nashriёти, 2020. – 256 б.
5. Tuxliyev N., Jiyanov O'. O'zbekistonda turizm xizmati va texnologiyalarining rivojlanishi. – Toshkent, 2022. – 96 b.
6. Tuxliyev N., Jiyanov O'. Turizmda xavfsizlik. Darslik. – Т.: «Ilm-Ziyo-Zakovat» nashriyoti, 2022. – 196 b.